



ORIENTAL
UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ORIENTAL UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Oriental universiteti rektori

N.Mamataxunov



2026-yil

“ ”

STARTAP

“BALOG‘AT ILMI ATAMALARINING
O‘ZBEKCHA IZOHLI LUG‘ATI”

Fan yo‘nalishi:

filologiya

Ilmiy-texnik kengashlar yo‘nalishiga mos ravishda

Startap turi:

amaliy

amaliy, innovatsion, fundamental

Startap rahbari:

fil., fan., dok., professor S.Rustamiy

FISh, ilmiy darajasi va unvoni

Startap bajarilayotgan tashkilot yuridik manzili

Olmazor tumani, Noraztepa ko‘chasi, 52

TOSHKENT – 2026

STARTAP LOYIHASI PASPORTI

№	Talab etiladigan ma'lumotlar	Ma'lumotlar
1	Loyihaning nomi <i>(o'zbek, rus ya ingliz tillarida)</i>	<p>“Balog‘at ilmi atamalarining o‘zbekcha izohli lug‘ati”</p> <p>“Толковый словарь терминов науки баляга на узбекском языке”</p> <p>“An Uzbek Explanatory Dictionary of Terms of the science balagah”</p>
2	Loyihaning amalga oshirish faoliyat turi <i>(xizmatlar, ishlab-chiqarish va boshqalar)</i>	Ta'lim xizmatlari
3	Loyiha rahbari	fil., fan., dok., professor S.Rustamiy
4	Loyiha haqida qisqacha ma'lumot	<p>Balog‘at ilmi — nutq go‘zalligi, badiiy ifoda vositalari va uslubiy texnikalarni o‘rganuvchi filologiya sohasining muhim tarmog‘idir. Ushbu soha bo‘yicha ilmiy-terminologik lug‘at yaratish loyihasi nafaqat lingvistik, balki keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Mazkur loyihani amalga oshirishda balog‘at ilmiga oid terminlarni jamlash, tasniflash va tahlil qilish hamda ularni yagona lug‘at holiga keltirish maqsad qilingan.</p>
5	Tashkilot	Oriental universiteti
6	Texnologiya/xizmat/mahsulotning qo‘llanish sohasi	Filologiya
7	Biznes loyihaning asosiy mazmuni <i>(bir necha jummlar orqali loyihaning mazmunini izohlang)</i>	<p>"Balog‘at ilmi terminlarining o‘zbekcha izohli lug‘ati" biznes loyihasi, o‘zbek tilidagi balog‘at ilmi terminlarini to‘plagan va izohlagan lug‘at yaratishga qaratilgan loyihadir. Bu lug‘at kasbi nutqiy faoliyatni tashkil qiluvchi soha egalari, balog‘at ilmi, badiiy matn bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, talabalar, o‘qituvchilar va umumiy o‘quvchilar uchun foydali manba bo‘lib, ularning so‘z boyligini oshirish va soha terminologiyasini yaxshilashga yordam beradi. Loyiha davomida lug‘atdagi har bir termin o‘ziga xos va aniq izohlar bilan taqdim etiladi, bu esa foydalanuvchilarga to‘g‘ri tushuncha hosil qilish imkonini beradi.</p> <p>Loyiha maqsadi – balog‘at ilmi bo‘yicha atamalarni ilmiy va amaliy jihatdan izohlash, ularning aniq ma‘nolarini ifodalash va o‘zbek tilidagi ilmiy lug‘atni boyitishdir.</p>
8	Loyiha joriy etiladigan hudud	O‘zbekiston Respublikasi, filologiya

	va tarmoq nomi	sohasi
9	<p>Loyihaning hudud va tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri <i>(hududdagi va tarmoqdagi muammolarni hal qilishda loyihaning o'rni va roli ko'rsatilishi lozim)</i></p>	<p>Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasida ta'lim, ilm-fan va nutq orqali xizmat ko'rsatuvchi sohalarning sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, balog'at ilmi atamalarini lug'atining mobil ilovasini yaratish va muomalaga kiritish badiiy o'g'zaki va yozma nutq madaniyati va ma'noni ifodalashda savodxonlikni takomillashtirishga, o'zbek tilining mavqeyi va nufuzini oshirishga xizmat qiladi.</p> <p>Bugungi kunda amaliy tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasidagi asosiy muammolardan biri — balog'at atamalarining raqamli resurslarda tarqoqligi va tizimlashtirilmaganligidir. Ushbu loyiha aynan shu muammoni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari va keng jamoatchilikni yagona ilmiy-axborot maydoniga birlashtiradi.</p> <p>Loyihaning amalga oshirilishi natijasida noto'g'i ifoda qilingan ma'noni to'g'rilash va tahrif qilish uchun sarflanadigan vaqt hamda xarajatlar qisqaradi. Bu esa mehnat unumdorligini oshirib, ilm-fan va ta'lim sohasining iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.</p> <p>Xulosa qilib aytganda, mazkur loyiha hudud va tarmoq miqyosida mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan, iqtisodiy jihatdan samarali va ijtimoiy ahamiyatga ega innovatsion intellektual tashabbus hisoblanadi.</p>
10	<p>Qo'llanilayotgan texnologiyalar, ularning yangilik darajasi va intellektual mulkni himoya qilish borasida ko'rilgan choralar haqida ma'lumot</p>	<p>Loyihani amalga oshirish jarayonida zamonaviy axborot va lingvistik texnologiyalardan foydalaniladi. Jumladan, terminlarni yig'ish va tizimlashtirishda elektron matn muharrirlari, ma'lumotlar bazasi asosidagi lug'at tuzish usullari hamda raqamli tahrirlash texnologiyalari qo'llaniladi. Atamalarini izohlashda ilmiy manbalar va elektron resurslardan foydalanilib, terminlar alifbo tartibida va tematik jihatdan guruhlanadi. Shuningdek, kelgusida elektron formatda foydalanish imkoniyatini yaratish uchun raqamlashtirish texnologiyalari joriy etiladi.</p> <p>Mazkur loyiha yangilik jihatidan dolzarb hisoblanadi, chunki "balog'at ilmi"ga oid</p>

		<p>terminlar ilk bor tizimli ravishda o'zbek tilida izohli lug'at shaklida jamlanmoqda. Ilgari ushbu terminlar asosan arab yoki fors tilidagi manbalarda uchragan bo'lsa, ushbu loyiha orqali ular o'zbek tiliga moslashtirilib, ilmiy va tushunarli izohlar bilan beriladi. Bu esa milliy terminologiyani boyitish va ilmiy tilni rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhim yangilik hisoblanadi.</p> <p>Loyiha natijalari mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Lug'at matni, tuzilishi va izohlar mualliflik huquqi obyektlari sifatida rasmiylashtiriladi. Foydalanilgan manbalarga havolalar berilib, plagiatga yo'l qo'yilmaydi. Elektron shaklda tarqatilganda, ruxsatsiz ko'chirish va o'zgartirishning oldini olish uchun maxsus belgilash (muallif nomi, loyiha nomi) va litsenziyalash choralarini ko'rish rejalashtiriladi. Shuningdek, loyiha materiallaridan foydalanish faqat muallif roziligi asosida amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.</p>
11	Biznes modeli	B2B
12	Loyihaning bosqichlari	<p>1. Loyihani rejalashtirish va maqsadni aniqlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> – tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifalarini belgilash; – balog'at ilmi atamaları lug'ati konsepsiyasini ishlab chiqish; – atamalarni izohlash mezonlarini shakllantirish; – tadqiqot doirasini belgilash (darsliklar, OAV, internet manbalari, ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar). <p>2. Ma'lumotlarni to'plash</p> <ul style="list-style-type: none"> – balog'at ilmi atamaları bo'yicha ilmiy, ta'limiy va amaliy manbalarni yig'ish; – o'zbek va xorijiy olimlar ishlari, darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlar, ilmiy maqolalar, oav matnlari va internet resurslarini tahlil qilish; – manbalarni elektron va bosma formatlarda jamlash. <p>3. Ma'lumotlarni saralash va tasniflash:</p> <ul style="list-style-type: none"> – so'zlarni alifbo tartibi bo'yicha guruhlash; – atamalarni aniqlash; – mavzuviy tasnif: <p>maoniyga oid atamalar, bayonga oid atamalar, badi'ga oid atamalar bo'yicha ajratish;</p> <ul style="list-style-type: none"> – izohlar va normativ asoslarni belgilash.

		<p>4. Ma'lumotlarni raqamli bazaga joylashtirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> – elektron imlo ma'lumotlar bazasini yaratish; – elektron lug'atni shakllantirish; – qidiruv, filtr, saralash va tavsiya mexanizmlarini joriy etish; – atamalarni mavzu bo'yicha avtomatik aniqlovchi tizimni ishlab chiqish. <p>5. Loyihaning natijalarini bosma va elektron shaklda taqdim etish:</p> <ul style="list-style-type: none"> – raqamli imlo lug'ati ma'lumotlar bazasini yaratish; – interaktiv PDF/elektron lug'at shakllarini tayyorlash; – ta'lim muassasalari, OAV va davlat tashkilotlariga joriy etish.
13	Loyihani amalga oshirish muddati (loyihaning boshlanishi va tugashi kun, oy va yillarda)	2026-yil 16-fevraldan 2027-yil 16-fevralgacha
14	Loyihaning o'zini-o'zi qoplash muddati	2026-2027 yil
15	Umumiy moliyalashtirish hajmi (mln so'mda)	12 mln.
16	Shu jumladan:	
17	Vazirlikning moliyaviy mablag'lari manbalari hisobidan moliyalashtirish miqdori (mln so'mda)	0 so'm
	Birgalikda moliyalashtirish hajmi Cost sharing, agar mavjud bo'lsa (mln so'mda)	12 mln. so'm
18	Kalit so'zlar (10 tadan kam bo'lmagan kalit so'zlar (alohida vergul bilan ajratiladi))	Balog'at, maoniy, bayon, badi', xabar, insho, musnad, musnad ilayhi, so'roq, buyruq, inkor, istak, iyjoz, itnob, musovot, majoz, kinoya, tashbeh, tarse'.

Loyihaning biznes-rejasi

1. Rezyume

Loyihaning nomi: "Balog'at ilmi atamalarining o'zbekcha izohli lug'ati"

Loyihani amalga oshiradigan tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli: ta'lim xizmatlari

Loyihani amalga oshirish joyi: Oriental universiteti

Loyiha uchun zarur moliyaviy resurslar summasi: 12 mln

2. Loyihaning barcha ijrochilari haqida ma'lumot

1. Djurayeva Feruza – loyiha ishtirokchisi, fil., fan., nomzodi, dotsent

2. Mamadaliyev Muhsin – loyiha ishtirokchisi, Oriental universiteti.

3. Hojiakbarova Fazilatxon – loyiha ishtirokchisi, Oriental universiteti 1-bosqich talabasi

4. Obidova Soliha – loyiha ishtirokchisi, Oriental universiteti 3-bosqich talabasi

6. Loyihaning xarajatlar smetasi

No	Xarajat nomi	Miqdor /vaqt	Narxi (so'm)	Asoslash/ izoh
1	Loyiha manbalarini to'plash	6 oy	4,500,000 so'm	Kitoblar, maqolalar, rasmiy va norasmiy yozishmalar, onlayn resurslar
2	Elektron baza yaratish	2 oy	2,000,000 so'm	Excel yoki Access dasturiga ma'lumotlarni kiritish
3	Ma'lumotlarni tasniflash va tahlil qilish	3 oy	2,500,000 so'm	Lingvistik va bibliografik tasniflash, statistik tahlil
4	Grafik va diagrammalar tayyorlash	1 oy	1,500,000 so'm	Tahlil natijalarini alifbo tartibida tizimlashtirish
5	Loyihani chop etish va taqdimot materiallari	1 oy	3,000,000 so'm	Bosma va elektron lug'at, interaktiv taqdimotlar
6	Umumiy xarajatlar	-	12,000,000 so'm	-

Tillar-1 kafedrasi mudiri:

S. Rustamiy

Filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi menejeri

B. Mamataxunov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor:

M. Nasirova

Rektor:

N. Mamataxunov